O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

«SHARQSHUNOSLIK SOHALARINI TADQIQ ETISHNING DOLZARB MASALALARI» MAVZUSIDA YOSH SHARQSHUNOSLARNING AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV NOMIDAGI XIX RESPUBLIKA ILMIY–AMALIY KONFERENSIYASI

TO‘PLAMI

«FAN»
Toshkent – 2024

UO‘K 314.151(575)(08)
KBK 607(543)
Y 83

«Sharqshunoslik sohalarini tadqiq etishning dolzarb masalalari» mavzusida Yosh sharqshunoslarning akademik Ubaydulla Karimov nomidagi XIX respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami. – Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2024. – 286 b.

Taqrizchilar:
O‘ktambek Sultonov – tarix fanlari doktori, professor.
Sherali Qo‘ldoshev **–** tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Tahrir guruhi:
Laziz To‘rayev – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Akbar Idiyev, Maftuna Mirzayeva, Sherzod Karimov, Dostonjon Tojiyev, Farrux Kamoliddinov.

Ushbu to‘plamda qadimgi davrdan bugungi kungacha bo‘lgan sharqshunoslik sohasidagi dolzarb masalalar, tarix fani oldida turgan muammolar va ularning yechimlari, tarixshunoslikka oid tadqiqotlar, til, adabiyot hamda manbashunoslik masalalari, Sharq rennesansi davri allomalari ilmiy merosining o‘rganilishi, qadimiy yozma manbalarning muomalaga kiritilishi kabi masalalarga qaratilgan tadqiqotlar o‘rin olgan. To‘plam sharqshunoslar, tarixchilar, adabiyotshunoslar, tadqiqotchilar va keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan. To‘plam tarkibidan o‘rin olgan maqolalar mualliflarning ilmiy tadqiqot natijalari va shaxsiy ilmiy qarashlarini o‘zida aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Ilmiy kengashining 2024-yil 3-maydagi 5-sonli majlisi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

© Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti.
© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.
© «Fan» nashriyoti, 2024.

ISBN 978-9910-9030-5-2

FRANSUZ SHARQSHUNOSI POL PELYONING ILMIY FAOLIYATIGA NAZAR

OSTONOV Jahongir Davlatovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti
3-bosqich tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0001-9995-4909

A VIEW OF THE SCIENTIFIC ACTIVITY OF THE FRENCH ORIENTALIST PAUL PELIOT

OSTONOV Jahongir
Al-Biruni Institute of Oriental Studies of
Uzbekistan Academy of Scinces,
Doctoral student
ORCID: 0009-0001-9995-4909

Abstract. *This article talks about some aspects of the scientific activity of the French orientalist Paul Pelliot, who made a great contribution to world science. During his scientific career, Paul Pelliot made a great contribution to the study of Asia. Many of his scientific articles on the history of China, Indochina, Tibet, East Turkestan, Central Asia, Vietnam, and Cambodia were among the fundamental researches of science. The study of historical manuscripts preserved in various languages of the East has led to the emergence of new information about the history of the region. Many researchers are still using his research on the history of religion, history of language, philology, linguistics, and history of art. During his life, he learned 13 languages and was able to communicate in these languages. Among them are Chinese, Turkish, Russian, Uzbek, Mongolian, Hebrew, Pashto, Sanskrit, Uyghur, Sogdian and Tokharian languages. He is a follower and student of the famous French orientalists Sylvain Lévy and Edouard Chavannes. He worked at the Far East French School for 12 years and made a great contribution to the development of French Chinese studies. From 1911, he headed the department of Central Asian languages, history and archeology at the Collège de France. The article was written based on a historical-chronological approach. Researches in French about the scientific activity of the scientist were used in it.*

Filolog, lingvist, tarixchi, arxeolog hamda Fransiyada Osiyo tadqiqotlari bo‘yicha yetuk mutaxassis hisoblangan Pol Pelyo sharqshunoslik ilmiga ulkan hissa qo‘shgan dunyo darajasidagi olim hisoblanadi. 1878-yilning 28-may kuni Parijda tug‘ilgan Pelyo dastlab Stanislas kollejida, keyin esa Siyosiy fanlar maktabi hamda Sharq tillari maktabida tahsil oldi. 1897-yilda Oliy tadqiqotlar amaliy maktabida sanskrit tilini va ingliz tilini o‘rgandi. 1898-yil Tirik sharq

tillari maktabida xitoy tilidan diplomli bo‘ldi. Shu bilan Kollej de Fransda ham darslar oldi. Shu tariqa tilshunoslikka qadam qo‘ydi [2: 201–203]

Osiyo sari. 1899-yil 21 yoshli Pol Pelyo Saygonda joylashgan Hindixitoy arxeologik missiyasi a’zosi bo‘ldi. Dastlab shu ko‘rinishda tashkil etilgan missiya 1900-yilga kelib Uzoq Sharq fransuz maktabi sifatida qayta tashkil etildi. Uning Uzoq Sharqqa kelishi uncha muvaffaqiyatli boshlanmadi. Maktab tomonidan Pekinga yuborilgan Pelyo Xitoyda yuz bergan inqilobga duch keldi va 55 kun qamalda qolib ketdi. O‘sha paytda ko‘rsatgan mardonavorligi uchun unga « Faxriy legion » ordeni berildi. 1901-yilning mart oyidan iyun oyigacha ikkinchi marta Xitoyga yuborildi. U yerdan EFEO (Ecole française d’extrème orient – Uzoq Sharq fransuz maktabi) uchun katta hajmdagi xitoycha, tibetcha va mo‘g‘ulcha manbalarni olib keldi. Bundan tashqari bir qancha san’at durdonalarini ham olib keldi. Bir yildan keyin amalga oshirilgan sayohat davomida esa, 24 ming zamonaviy adabiyot namunalarini olib keladi. Maktabning hech narsasiz tashkil etilgan Xitoy fondi Xitoy va Yaponidan keyin eng boy fondga aylandi. Bunda Pelyoning xizmatlari buyukdir [8: 130-144].

Ilk tadqiqotlari. 1902-yilda Pol Pelyo Xitoy diplomati Chjou Daguan (1266-1346) ning Kambodjaga safari taassurotlari aks etgan xotiralarini tarjima qildi. Uning bu tadqiqoti EFEO Byulletinining 2-sonida nashr etildi [7: 123–177]. Bu asar oldin Abel Remuza tomonidan tarjima qilinib, nashr etilgan bo‘lsa-da, Pelyoning tarjimasi ancha mukammal va talqin jihatidan farq qiladi. Pelyoning bu maqolasi qadimgi Kambodja haqidagi asosiy manbalardan biri bo‘lib turibdi [8: 130-144].

Shu yilning o‘zida, Pelyo Yaponiyadan topilgan qadimgi xitoy matnlari ustida ishladi. 1903-yilda Pelyo Funan davlatiga bag‘ishlangan katta maqolani nashr ettirdi. Funan davlati Hindixitoyning janubida joylashgan davlat bo‘lib, o‘z qudratining cho‘qqisiga chiqqan paytda Koshinshin va Kambodja hududlarini qamrab olgan. Ushbu davlat milodiy I-VI asrlarda mavjud bo‘lgan. Pelyo maqolani yozishda Tang imperiyasi yilnomalaridan foydalanib, III-VI asrlardagi Funan tarixini qalamga olgan. Bu davlat haqida biz faqatgina Xitoy manbalari orqaligina ma’lumot olishimiz mumkin. Pelyoning xulosalari o‘z vaqtida katta muhokamalarga ham sabab bo‘lgan [8: 130-144].

Sharqiy Turkiston missiyasi. 1904-yilda Parijga qaytgan Pelyo bir yildan keyin yangi missiya qabul qildi. Bu missiya keyinchalik u uchun muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. 1906-yildan 1908-yilgacha Sharqiy Turkiston arxeologik missiyasida faoliyat yuritdi. U hududning topografik va orografik tadqiqotini, shu bilan birga bu uning fauna va florasini kuzatdi va nihoyat, arxeologik yodgorliklarni o‘rgandi. Shuningdek, Parijga budda matnlaridan parchalar yubordi va bu keyinchalik tadqiqotchilar tomonidan o‘rganildi. Pol Pelyoning Sharqiy Turkistondagi Xitoy boshqaruvi haqidagi o‘sha paytdagi yangi ma’lumotlari shuni ko‘rsatdiki, haqiqatda bu hudud koloniya edi va koloniya bo‘lganda ham ekspluatatsiya koloniyasi edi. Mahalliy amaldorlar uquvsiz va semiz, markaz bilan oralaridagi farq 5 oylik yo‘l bo‘lganligi bois, butunlay uzilib qolgan edi. Sharqiy Turkistonning yevropaliklar uchun

ahamiyatli jihati shunda ediki, bu hudud Rossiya imperiyasi, Xitoy va Hindiston oʻrtasida joylashganligi edi [5: 189–191].

Pelyo Sharqiy Turkistonga borish uchun yoʻlda ekanligida mahalliy turk tilini oʻrganadi. Qashgʻarga borish uchun esa dastlab Buxoroga keladi va bu yerdan ruslar bilan birgalikda Qashgʻarga yetib boradi. Tegurmanda budda ibodatxonasi xarobalarini koʻradi. Keyin esa uzoq muddat Tumshuqda qoladi va u yerda ham budda ibodatxonasi xarobalarini topishga muvaffaq boʻladi. Bu yerda u koʻplab yunon-budda uslubidagi haykallar va sopol buyumlarni topdi. Bu buyumlar IX asrdan oldingi davrga tegishli. Kuchada sakkiz oy davomida arxeologik qazishmalar olib borgan Pelyo brahmi yozuvidagi qoʻlyozmalarni topishga muvaffaq boʻladi. Ammo ushbu yozuvlarning tili noma'lum edi. Keyinchalik, Liven Levi bu tilning toxar tili ekanini aniqlaydi. [8: 130-144]

Dunhuan ekspeditsiyasi. Pol Pelyoning faoliyatidagi yana bir muhim tadqiqot Dunhuangda joylashgan Mogao gʻoridagi qoʻlyozmalarni oʻrganish boʻldi. Ushbu qoʻlyozmalar daochi rohib Vang Yuanlu tomonidan topilgan boʻlib, Pelyo ularni 500 lyan (tael), bugungi kun hisobi boʻyicha 10ming yevro miqdoridagi kumushga sotib oladi. Pelyo bu borada omadli edi, chunki bir yil oldin bu qoʻlyozmalarni ingliz xitoyshunosi Orel Steyn sotib ololmagan. Uning tilshunos sifatidagi mahorati qoʻlyozmalarning eng saralarini tanlashga imkon berdi. Ularning aksariyati XI asrdan oldinga tegishli boʻlib, 3000 sahifadan ortiq edi [4]. XI asrdan buyon yashirinib yotgan ushbu nodir xazinaga kirish imkoni haqida oʻzi shunday hikoya qiladi : « Nihoyat kalitlar yetib keldi. 1908-yil 3-mart kuni muqaddaslar muqaddasiga kirishga muvaffaq boʻldim. Hayratdan yoqa ushladim. 8 yildan buyon izlaganimiz ushbu kutubxonani ancha kamayib ketgan deb oʻylagan edim. Barcha tomondan 2,5 metr keladigan, boʻyi odam boʻyi boʻlgan uch tomonida ikki yoki uch qator qilib taxlab qoʻyilgan oʻrama hujjatlarni koʻrgandagi hayratimni tasavvur qilavering. Qoʻlyozmalar shikastlangan, oʻrtasidan singan, boshi yoki dumi uzilib tushgan holatda edi. Ayrimlarining faqatgina sarlavhalarigina saqlanib qolgandi… » [8: 130-144]

Pelyo uch hafta mobaynida ushbu gʻorda qolib qoʻlyozmalarni oʻrganish bilan shugʻullandi. Kuniga 1000 oʻrama jild hujjatlarni oʻrganib chiqdi. Ularning tili Xitoyning turli tillari, tibetcha va boshqa qadimiy tillardan iborat edi [3:1273-1282]

1909-yilda Parijga qaytgan Pelyo ushbu hujjatlarni oʻrganishni boshladi. Ularning aksariyati buddaviylik diniga oida qoʻlyozmalar boʻlib, xitoy, tibet, sanskrit, toxar, xoʻtan, soʻgʻd va uygʻur tillarida yozilgan edi. U yerdan olib kelgan koʻplab rasmli oʻrama hujjatlarni, arxeologik qazishma parchalarini va tosh suratlarni Luvr hamda Gimet muzeylariga taqdim qildi. Pol Pelyoning Dunxuandan olib ketgan qoʻlyozmalarni Marsel Lalu katalog holiga keltirib, Fransiya milliy kutubxonasiga taqdim etgan. Hozirda kutubxonaning Pelyo Tibet fondida saqlanadi [1].

Ushbu qo‘lyozmalar Markaziy Osiyo tarixining VI-XI asrlardagi tarixini hamda buddizmning Xitoyga tarqalish tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib hisoblanadi. Ushbu boyliklar dunyodagi eng ahamiyatli qadimiy kolleksiyalardan biri hisoblanadi. O‘sha davrdagi Fransiyada Tibet tadqiqotlari keng tarqalgan edi va mazkur qo‘lyozmalar ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar rivojlanishiga turtki berdi.

Fransiyadagi sharqshunos sifatidagi faoliyati. Pol Pelyo 1911-yildan Kollej de Fransda Markaziy Osiyo tillari, tarixi va arxeologiyasi kafedrasini tashkil qilib, uni boshqaradi. Professor Pelyo asosiy e’tiborini tibet, turk-mo‘g‘ul va eron tillari tarixiga qaratadi. Shuningdek, Xitoy va Yevropa sayyohlarining sayohatnomalarini diqqat bilan o‘rganadi. Jumladan, Marko Polo, Mo‘g‘ullar davlatiga yuborilgan nasroniy rohiblar, Mateo Richchi sayohatnomalari kabilar. Osiyo jamiyatiga a’zo bo‘lgan Pelyo, 1921-yilda Qo‘lyozmalar va xattotlik akademiyasi a’zosi etib saylandi. Shu bilan akademiya vitse-prezidenti ham bo‘ldi. 1936-yilda Silven Levi vafotidan keyin Osiyo Jamiyati prezidentiga aylandi.

Ilmiy merosi. Pol Pelyo 1945-yil 26-oktabr kuni Parij shahrida vafot etdi. Uning ilmiy merosi 800dan ortiq ilmiy maqolalardan iborat. U katta hajmli kitoblar yozmagan bo‘lsa-da, boy ilmiy maqolalar yozib qoldirdi. Uning maqolalari XX asrning birinchi yarmida yozilgan bo‘lishiga qaramay, ular Xitoy, Hindixitoy, Mo‘g‘uliston va Markaziy Osiyo tarixi bo‘yicha fundamental tadqiqotlar hisoblanadi [6]. Butun XX asrning birinchi yarmi mobaynida u fanda so‘zi birinchi bo‘lib qabul qilinadigan siymo bo‘lib qoldi. Vafotidan keyin ham uning tadqiqotlari asosiy tadqiqotlar sifatida qaraladi. Fanning filologiya, lingvistika, tarix, din tarixi, san’at tarixi, arxeologiya, geografiya kabi turli sohalarida faoliyat yuritdi.

Xulosa o‘rnida. Pol Pelyo ilmiy faoliyati davomida Osiyoni o‘rganishga katta hissa qo‘shdi. Uning Xitoy, Hindixitoy, Tibet, Sharqiy Turkiston, Markaziy Osiyo, Vetnam, Kambodja tarixiga oid ko‘plab ilmiy maqolalari fanning fundamental tadqiqotlari qatoridan joy oldi. Sharqning turli tillarida saqlanib qolgan tarixiy qo‘lyozma matnlarning tadqiqi esa, mintaqa tarixi haqidagi yangi ma’lumotlarning dunyoga kelishiga sabab bo‘ldi. Uning din tarixi, til tarixi, filologiya, lingvistika, san’at tarixiga oid tadqiqotlaridan bugun ham ko‘plab tadqiqotchilar foydalanib kelmoqda. Umri davomida 13ta tilni o‘rgangan va bu tillarda muloqot qila olgan. Ular qatorida xitoy, turk, rus, o‘zbek, mo‘g‘ul, ibroniy, pushtu, sanskrit, uyg‘ur, so‘g‘d va toxar tillarini sanash mumkin. U mashhur fransuz sharqshunoslari Silven Levi hamda Eduard Shavanlarning izdoshi va shogirdi. 12 yil davomida Uzoq Sharq fransuz maktabida faoliyat yuritib, fransuz xitoyshunosligi rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bibliothèque nationale (France) Département des manuscrits Auteur du texte, Inventaire des manuscrits tibétains de Touen-Houang conservés à la

Bibliothèque nationale : fonds Pelliot tibétain. I, Nos 1-849 / M. Lalou, 1939-1961 // https://gallica.bnf.fr/ark:/12148/bpt6k2139020
2. Christophe Charle et Eva Telkes, « 76. Pelliot (Paul, Eugène) », Publications de l'Institut national de recherche pédagogique, vol. 3, no 1,p. 201– ,1988 // 203https://www.persee.fr/doc/inrp_0298-5632_1988_ant_3_1_6155
3. Jean-François Jarrige, « Les carnets de route de Paul Pelliot (1906-1908) : Un document exceptionnel enfin publié », Comptes rendus des séances de l'Académie des Inscriptions et Belles-Lettres, vol. 152, no 3,p. 1273– ,2008 // 1282https://www.persee.fr/doc/crai_0065-0536_2008_num_152_3_92356
4. Les grottes Mogao de Dunhuang, un site bouddhique exceptionnel // https://bouddhismes.net/index.php?option=com_content&view=article&id=152:les-grottes-mogao-de-dunhuang&catid=15&Itemid=131
5. Maurice Zimmermann, «Expéditions archéologiques et géographiques Paul Pelliot, A. Stein, von Lecoq, en Asie Centrale», Annales de géographie, vol. 16, no 86, //p. 189–191 ,1907 https://www.persee.fr/doc/geo_0003-4010_1907_num_16_86_8055
6. Nathalie Monnet. PAUL PELLIOT (1878-1945) ET DUNHUANG // https://heritage.bnf.fr/france-chine/fr/paul-pelliot-dunhuang-article
7. Paul Pelliot. «Mémoire sur les coutumes du Cambodge», Bulletin de l'École française d'Extrême-Orient, vol. 2, no 1, //p. 123–177 ,1902 https://www.persee.fr/doc/befeo_0336-1519_1902_num_2_1_1117
8. Renou, Louis, « Notice sur la vie et les travaux de M. Paul Pelliot, membre de l'Académie», in Comptes rendus des séances de l'Académie des Inscriptions et Belles-Lettres, 94e année, N. 2, 1950. pp. 130-144// https://www.persee.fr/doc/crai_0065-0536_1950_num_94_2_78515

MUNDARIJA

So‘zboshi 3

MANBASHUNOSLIK, TIL VA ADABIYOT

J. Özlem Oktay Çerezci. WOMEN ACCORDING TO THE ART WORKS OF UZBEKISTAN GOKTURK PERIOD..... 5

Ismatova Nargiza Adxamovna. XIX ASR IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI BUXORO AMIRLIGIDA VAQF SUBYEKTLARI HOLATI 12

Rahimov Komiljon Rahmatovich. XOJA ORIF REVGARIY VA UNING «ORIFNOMA» ASARI QO‘LYOZMA NUSXALARI HAQIDA 19

Usmonov Ibrohim Sobirovich. HAKIM TERMIZIYNING “AL-FURUQ” KITOBIDA QIYOS – FIQHIY DALILI BAYONI 32

To‘rayev Laziz Abdivali o‘g‘li. “RABI’ AL-ABROR” ASARINING TARKIBIY TUZILISHI VA UNING MANBALARI..... 38

Saishanhuli W. TRANSLATION AND STUDY OF THE LITERATURE OF ABAY IN CHINESE 50

Abdullaev Botirjon. ABU RAYHON BERUNIYNING “TAFHIM” ASARI NUSXALARINING TOSHKENT VA DUSHANBE FAKSIMIL NASHRLARI HAQIDA 63

Agzamova Muhabbatxon Mirtoxirovna. “AL-KOMIL FIT-TARIX” ASARINING MANBAVIY ASOSLARI 72

Axmatov Amonkeldi. BUXORO ADABIY MUHIITINI O‘RGANISh MANBALARI 76

Baqoyev Umidjon Shuhrat o‘g‘li. MUHAMMAD TOLIBNING “MATLAB UT-TOLIBIN” ASARI ASHTARXONIYLAR VA BOBURIYLAR SULOLASI DIPLOMATIK MUNOSABATLARINI O‘RGANISHDA MUHIM MANBA SIFATIDA 80

Burgutxonov Saidumarxon. IBN HAZM ANDALUSIYNING “AL-FISOL” ASARIDA ISLOMDAGI YO‘NALISH VA FIRQALARNING YORITILISHIDAGI O‘ZIGA XOSLIKLAR 84

Diniqulov Abror Gulboy o‘g‘li. SHART MAYLIDAGI ARAB MAQOLLARINI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH USULLARI 89

Jumaniyazov Mansur Davlatbayevich. ZIYOVUDDIN MAKKIY XORAZMIYNING «KIFAYATU-N-NAHV FI ILMI-L-E’RĀB» ASARINING TARKIBI 93

Ismoilov Mas’udxon Maxdievich. XOJA MUHAMMAD PORSONING “TAHQIQOT” ASARIDA KALOM VA TASAVVUFNING NAZARIY MASALALARI UYG‘UNLIGI 108

Mirzayeva Maftuna Murodillo qizi. XVI-XVII ASRLARDAGI HUKM HUJJATLARINING STRUKTURAVIY JIHATLARI 114

Murodova Risolat Davron qizi. MUZEYLARDA AMALIY SAN’AT BUYUMLARINING KONSERVATSIYA VA RESTAVRATSIYA ASPEKTLARI 119

Nasirillayeva Nodirabegim Furqat qizi. BIBLIOGRAF OLIM ABDULLA NOSIROV VA UNING “BILKAT” ASARI HAQIDA 125
Oripov Davronbek. “O‘G‘UZNOMA“DAGI OYQOG‘ON OBRAZI VA UNING “KITABI DADAM QO‘RQUD”DAGI OBRAZLARGA TA’SIRI 129
Ravshanov Alijon. ZAMONAVIY MOLIYAVIY MASALALARGA BAG‘IShLANGAN FIQHIY ASARLAR TAHLILI 134
Samsakova Husniyaxon Xalxodjayeva. BOBOXONOVLAR SHAXSIY KUTUBXONASIDAGI QO‘LYOZMALARNING DASTLABKI TAHLILI 142
Sirojiddinova Maftuna Baxodirovna. ARABSHOHIYLAR SAROY DEVONIGA TEGISHLI QONUNChILIK AKTLARI (dastlabki tahlil natijalari) 147
Sulaymonova Hulkar Mo‘minjonovna. “AR-RASAIL” ASARINING GERMANIYA FONDLARIDA SAQLANAYATGAN QO‘LYOZMALARI XUSUSIDA 153
Umaraliyev Sherzodjon Abdulaxat o‘g‘li. SIROJUDDIN O‘SHIY “FATOVOI SIROJIYA” ASARIGA MUROJAAT ETGAN HANAFIY MAZHABI MANBALARI 159

TARIX VA TARIXSHUNOSLIK MASALALRI

Hulstine Matthew. CONVERGING NARRATIVES: THE SIGNIFICANCE OF ‘ALIMQUL’S FALL ..165
Azimov Xurshid. QADIMGI XITOY MANBALARIDA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING JOYLASHUV “XARITASI” 171
Ahmedova Dilafruz. BUXORO AMIRLIGI DIPLOMATIK MUNOSABATLARINING “INSHO” MAJMUALARIDA YORITILISHI 175
Idiyev Akbar Avaz o‘g‘li. SHAYBONIYLAR DAVRI SIYOSIY JARAYONLARIDA ETNIK BIRLIKLARNING ARALASHUVIGA DOIR 180
Kamoliddinov Farrux Burxoniddin o‘g‘li. MARKAZIY OSIYO RESPUBLIKALARINI FORS KO‘RFAZI ARAB DAVLATLARI BILAN ALOQALARINING QAYTA BOSHLANISHI TARIXIGA NAZAR 185
Karimov Sherzod Shavkat o‘g‘li. TEMURIYLAR DAVLAT BOSHQARUVIDA XOJA MAJDUDDIN MUHAMMADNING TUTGAN O‘RNI 189
Karimova Miyassar Jamoldinovna. O‘RTA OSIYOLIK SAVDOGARLARNING SHARQ MAMLAKATLARI BILAN SAVDO ALOQALARI 196
Ostonov Jahongir Davlatovich. FRANSUZ SHARQSHUNOSI POL PELYONING ILMIY FAOLIYATIGA NAZAR 205
Pilipchuk Yaroslav Valentinovich. ГОСУДАРСТВЕННОСТЬ И ЭТНИЧНОСТЬ УСУНЕЙ 210
Tojiyev Doston Beknazar o‘g‘li. TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DOIRASIDAGI HAMKORLIK: ILMIY-MADANIY HAMDA SIYOSIY SOHALAR MISOLIDA 216
Fayzullayev Farrux Eshqabulovich. UBAYDULLAXONNING MUHAMMAD SHAYBONIYXON YURISHLARIDA ISHTIROKI 223
Xayrullayeva Iroda Faxriddinovna. HIND XOTIN-QIZLAR TA’LIMI EVOLYUSIYASI (JAMMU VA KASHMIR MISOLIDA) 230

Xakimova Nigora. ZAMONAVIY TADQIQOTLARDA «MAHOSIN» ASARI O‘RGANILISHINING TAHLILI 237
Xusnutdinov Flipp Romanovich. МЕЖДУ ПОЭЗИЕЙ И ПОЛИТИКОЙ: ПОЧЕМУ ЛИДЕР ТУРКЕСТАНСКОЙ ДИАСПОРЫ В САУДОВСКОЙ АРАВИИ УПОДОБЛЯЛ СОВЕТСКОЕ ГОСУДАРСТВО СОВЕ? 242
Ermatova Mushtariy Abdulla qizi. QO‘QON XONLIGINI O‘RGANISHGA OID YANGICHA QARASH VA YONDASHUVLAR 248
Yakubov Qahramon Karimdjanovich. XIVA XONLIGI MADRASALARI TARIXINING ZAMONAVIY TARIXSHUNOSLIKDA YORITILISHI: YANGICHA YO‘NALISH VA YONDASHUVLAR 254
Qorayev Sherxon Po‘latxonovich. MANBALARDA BUXORO AMIRI ABDULAHADXON IJODI VA ADABIY KECHALARI TARIXI 262
G‘oyibnazarova Mahmuda O‘ktamjon qizi. “OYINA” JURNALIDA TURKISTONDAGI IQTISODIY MASALALARNING YORITILISHI 267
G‘ofurov Jasur Isaqovich. USTRUSHONA QISHLOQ MAKONLARINING ME’MORIY – QURILISH LOYIHASI VA USULLARI XUSUSIDA (V-VIII ASRLAR) 272
Abdupattaev Mo‘min Mirzo Murodjon o‘g‘li. MUHAMMAD IBN AHMAD XORAZMIYNING DINSHUNOSLIKKA OID QARASHLARI..... 278

«SHARQSHUNOSLIK SOHALARINI TADQIQ ETISHNING DOLZARB MASALALARI» MAVZUSIDA YOSH SHARQSHUNOSLARNING AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV NOMIDAGI XIX RESPUBLIKA ILMIY–AMALIY KONFERENSIYASI

TO‘PLAMI

Muharrir
Bunyod Pattayev

Badiiy muharrir
Murodillo Rahmonov

Musahhih
Jasur Qutbiddinov

Sahifalovchi
Doniyor Murodov

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Ilmiy kengashining 2024-yil 3-maydagi 5-sonli majlisi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

Nashriyot litsenziyasi № 7538, 25.05.2022-y.
20.05.2023-yilda bosishga ruxsat etildi.
Qog‘oz bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$. “Cambria” garniturasi.
Shartli bosma tabog‘i 20. Adadi: nusxa.
Buyurtma raqami №: 14-24.
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
“Fan” nashriyoti davlat korxonasida
nashrga tayyorlandi va chop etildi.
100047, Toshkent sh., Yahyo G‘ulomov ko‘chasi, 70-uy. Tel.:
+99899 7917555, +99871 2622154